

## INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA ANDRAGOGIK YONDASHUVLAR DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

**Nimatova Moxinur Sobit qizi**

TAFU "Pedagogika" kafedrası katta o'qituvchisi

[nimatovamohinur@gmail.com](mailto:nimatovamohinur@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Jahon ta'lim muassasalarida, innovatsion texnologiyalar va raqamli ta'lim muhitida andragogik yondashuv, mazmuni, shakl, metod, vositalar tinglovchilarni innovatsion texnologiyalari ta'lim jarayoniga tadbiq etilish shuningdek, zamonaviy jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlar insonni mobil, kommunikativ, talabchan va malakali mutaxassis bo'lishga, mustaqil ravishda qaror qabul qila olishga, o'z kasbiy faoliyatida o'zini doimiy ravishda amalda qo'llaydigan bilimlarini doimiy ravishda yangilab borishga qaratilgan masalalar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Andragogika, shakl, metod, innovatsiya, texnologiya, Ta'lim texnologiyasi, masofaviy ta'lim.

## АНДРАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ В ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЯХ И ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ КАК АКТУАЛЬНАЯ ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

**Ниматова Мохинур**

ТАФУ кафедра «Педагогика» старший преподаватель

[nimatovamohinur@gmail.com](mailto:nimatovamohinur@gmail.com)

**Аннотация:** В данной статье раскрыты проблемы, направленные на андрагогический подход, содержание, форма, метод, инструменты применяемые к образовательному процессу слушателей в мировых образовательных учреждениях в условиях инновационных и цифровых технологий, а также изменениям, происходящим в современном обществе, требующие быть мобильным, коммуникабельным, требовательным и квалифицированным специалистом, способным самостоятельно принимать решения, постоянно обновлять знания, которые постоянно применяются в своей профессиональной деятельности.

**Ключевые слова:** Андрагогика, форма, метод, инновация, технология, образовательная технология, дистанционное образование.

## ANDRAGOGICAL APPROACHES IN INNOVATIVE TECHNOLOGIES AND DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT AS CURRENT PEDAGOGICAL PROBLEM

**Nimatova Mohinur**

Pedagogy" department senior teacher

[nimatovamohinur@gmail.com](mailto:nimatovamohinur@gmail.com)

**Annotation:** *This article reveals problems aimed at the andragogical approach, content, form, method, tools applied to the educational process of students in global educational institutions in the conditions of innovative and digital technologies, as well as changes taking place in modern society, requiring to be mobile, sociable, demanding and a qualified specialist who is able to make independent decisions and constantly update knowledge that is constantly applied in their professional activities.*

**Key words:** *Andragogy, form, method, innovation, technology, Educational technology, remote education.*

### KIRISH

Jahon ta'lim muassasalarida, innovatsion texnologiyalar va raqamli ta'lim muhitida andragogik yondashuv, mazmuni, shakl, metod, vositalar tinglovchilarni innovatsion texnologiyalari ta'lim jarayoniga tatbiq etilmoqda. AQSh, Rossiya, Kanada, Angliya, Buyuk Britaniya, Kolumbiya, Xitoy ta'lim muassasalarida andragogiok yondashuvni tarkib toptirishning nazariy asoslari, innovatsion pedagogik texnologiyalar yordamida rivojlantirish bo'yicha yirik loyihalarni tatbiq etishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jahonda ta'lim oluvchilarning andragogik yondashuvi asosida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalar asosida aniqlik va mantiqiy izchillikka amal qilish ko'nikma va malakalarini takomillashtiradigan, kattalar ta'limining zamonaviy strategiyalarini qo'llash, tinglovchilarni innovatsion texnologiyalar va raqamli ta'lim muhitida andragogik yondashuvga asosida metodik rivojlantirish, mustaqil fikrlash, bilim va ko'nikmalarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 27 – avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida" PF-5789-sonli Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" ustuvor vazifa etib belgilandi. Natijada, pedagogik malaka oshirish va qayta tayorlash

markazlari tinglovchilarini innovatsion texnologiyalar va raqamli ta'lim muhitida andragogik yondashuvga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari rivojlantirish metodikasini takomillashtirish imkoniyatlari kengayadi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Pedagogik malaka oshirish va qayta tayorlash markazlari tinglovchilarini innovatsion texnologiyalar va raqamli ta'lim muhitida andragogik yondashuvga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari mavzusiga doir tadqiqotlar MDH olimlari tomonidan ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalar va raqamli ta'lim muhitida andragogik yondashuvga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari masalalarining tadqiqi Rossiyalik tadqiqotchilar S.N Gabrov1. T.A. Vasilkova, S.I.Zmeyov ilmiy ishlarida yuqoridagilarga qo'shimcha sifatida katta yoshlilar ijtimoiylashuvining o'ziga xosligi, inson hayotining turli bosqichlarida ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lishi, uzluksiz ta'lim olish haqida g'oyalarning asoslanishi hamda andragogikaning mustaqil fan sifatida qabul qilinishi yoritiladi" Xorij olimlaridan A.Kapp, M.Sh.Noulz, M.Forner, J.Dyui, E.Limdemann, E.Torndayk, N.Gruntvig, M.Xaydegger, K.Yaspers, J.P.Sartr, Y.N.Dyusher, D.V.Lorens, T.G.Braje, E.Erikson, R.Gould, O.Brim, Markinsney, H.Garner, Donaldson, Vigotskiylarning ilmiy izlanishlarida hamda M.Noulzning "Kattalar ta'limining zamonaviy amaliyoti. Andragogika yoki pedagogika" nomli asarida andragogikaning o'ziga xos xususiyatlari va tamoyillari keltirilgan. Doktor Jon A. Henske o'zining maqolasida andragogikaning shakllanish bosqichlarini yoritib bergan. "S.G.Vershlovskiy o'zining "Andragogning ish kitobi" asarida andragogikaning shakllanish bosqichlarini yoritib bergan." Undan tashqari, N.N.Kuzina, G.B.Monina, O.V.Pavlovalarning maqolasida kattalar ta'limi muassasalarida o'qituvchining andragogik kompetensiyasi ko'rib chiqiladi. O.A.Suykovaning tadqiqot ishida uzluksiz ta'limning andragogik jihatlari, G.A.Vladimirovnaning tadqiqot ishida pedagogik kadrlar malakasini oshirish tizimida andragogik yondashuvni joriy etish, A.V.Kopylova andragogik modelning xususiyatlari haqida, E.G.Skubitskiy, T.A.Astashova o'qituvchilarni axborotlashtirish vositalaridan foydalanishga tayyorlash, Skryabina, N.Yuriyevnalarning ilmiy tadqiqotida o'qituvchining kasbiy va shaxsiy rirojlanishining andragogik shartlari borasida izlanishlar olib borishgan.

Respublikamiz olimlaridan M.T Mirsoliyevaning "Andragogikaning taraqqiyot yo'nalishlari" ilmiy maqolasida andragogikaning shakllanish jarayonlari hamda kattalar ta'limining omillari haqida fikr yuritilgan, "O'.M.Asqarova, M.A.Abdullayeva, M.Boltayeva "Andragogika" kitobida andragogikaning shakllanishi va kattalar ta'limi haqida umumiy ma'lumotlar keltirilgan". Shuningdek, M.T Mirsoliyeva, Ishmuhammedov R.J "O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish" metodik qo'llanmasi, hamda H.F.Rashidov,

A.S.Djurayev, N.Ismoilovalar andragogika sohasida ilmiy izlanishlar olib borishgan. D.P.Abdujalolova “O‘zbekiston va Janubiy Koreyada kattalar ta’limi: qiyosiy tahlil” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi”da kattalar ta’limiga oid xorijiy tajribalar o‘rganilgan.

Ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvning didaktik imkoniyatlari, o‘qituvchining pedagogik mahorati bilan bog‘liqligi masalalari A.A.Akramov, A.A. Alimov, N.N. Azizxodjaeva, A.A.Abduqodirov, S.A. Djumaeva, N.S. Kiyamov, G.E. Kushakova, A.A. Mustafaqulov, M.T. Mirsolieva, N.A Muslimov, A.A Raximov, Sobirova Ch.A., Sh.Z. Taylanova, A.A. Xalikov, Q.Q. Qurbonboev, Z.Q. Qurboniyozovalar;

U.Sh. Begimqulov, D.U.Djuraev, T.K. Narbaeva, O.R.Jamoldinova, S.Turg‘unov, X.Ibraimov, A.Musurmanova, M.Quronovlar ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvning kreativ imkoniyatlari; oilada yoshlarning kasbiy ijtimoiylashuvi muammolari F.Yu. Abduraximova, M.Abdullaeva, D.M.Begmatova, D.S.Davronova, M.Isoqova, M.M.Maxmudova, D.X. Narzikulovalar; Sh.Baratov, M.Davletshin, G‘.Shoumarov, E.G‘oziev, V.Karimovalar tomonidan bo‘ljak pedagoglarni zamonaviy interaktiv metodlar asosida kreativ fikrlashga oid kompetensiyasini psixologik rivojlantirish, individual tipologik xususiyatlarini inobatga olish, psixologik asoslarini takomillashtirish masalalarini tadqiq qilingan.

### MUHOKAMA

O‘zbekistondagi zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat, kelgusi 20 yil ichida katta yoshdagi aholiga ta’lim berish ahamiyatining ortishini taxmin etishga imkon bermoqda. O‘zbekiston aholisining keksayish nisbatiga oid, qo‘shimcha, kasbiy va umummadaniy ta’lim olishga ehtiyoj sezuvchi kattalar foizi quyidagi sabablarga ko‘ra o‘sib bormoqda:

- ✓ “Savodxonlik” tushunchasining yangi ahamiyat kasb etishi (yangi zamonaviy bilim, ko‘nikma, malakalami egallash zarurati, kompyuter bilan ishlash, kommunikativ malakalarni egallash v.x.);
- ✓ O‘qituvchi, xizmatchi va xodimlarga yangi talablarning ortishi, ulaming malakasini oshirish va qayta tayyorlash;
- ✓ Yangicha bozor iqtisodiyoti sharoitida, mexnatga layoqatsiz kishilarning ish o‘rinlarini qisqartirilishi;
- ✓ Xarbiy xizmatchilarni yalpi zahiraga chiqarilishi, ularni yangi kasbiy sohalarga jalb etish, qayta tayyorlash va ijtimoiy-psixologik moslashuvi uchun ko‘maklashishni talab etadi;
- ✓ Zamonaviy kompyuter texnologiyalari katta yoshdagilar uchun uzluksiz kasbiy ta’lim olish va kasblar uyg‘unligini o‘zlashtirish imkonini berdi;

- ✓ Turli xuquqbuzarliklar sodir etgan shaxslarni yana to'laqonli hayotga qaytarish, ijtimoiy rehabilitastiyalash va ma'naviyatini yuksaltirish uchun ta'limning turli shakllariga yo'naltirish.

Zamonaviy jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlar insonni mobil, kommunikativ, talabchan va malakali mutaxassis bo'lishga, mustaqil ravishda qaror qabul qila olishga, o'z kasbiy faoliyatida o'zini doimiy ravishda amalda qo'llaydigan bilimlarini doimiy ravishda yangilashga majbur qiladi. An'anaviy, tarixan shakllangan ta'lim orqa fonga o'tadi va innovatsion yondashuv oldingi o'ringa chiqadi. Mamlakatimiz hayotining barcha sohalarini rivojlantirish, milliy taraqqiyotimizni yangi bosqichga ko'tarishda innovatsiyaning o'rni haqida davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev: "Innovatsiya – bu kelajak degani, Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak. Shuning uchun biz Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etdik va uning oldiga aniq vazifalarni qo'ydik. Bu vazirlik nafaqat iqtisodiyot sohasida, balki butun jamiyat hayotida eng muhim loyihalarni amalga oshirishda o'ziga xos lokomotiv rolini bajaradi, deb ishonamiz" — degan edi. Shu o'rinda texnologiya so'ziga ham to'xtalib o'tamiz:

**Texnologiya**(yunoncha "techne"- mahorat, san'at, "logos"- tushuncha, ta'lumot)- muayyan jarayonlarning yuksak mahorat, san'at darajasida tashkil etilishi.

**Ta'lim texnologiyasi**- ta'lim maqsadiga erishish jarayonining umumiy mazmuni, ya'ni avvaldan loyihalashtirilganta'lim jarayonini yaxlit tizim asosida bosqichma- bosqich amalga oshirish, aniq maqsadga erishish yo'lida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish, ulardan samarali foydalanish hamda ta'lim jarayonini yuqori darajada boshqarish. [14] O'qituvchining pedagogik faoliyatini rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalariga quyidagilar kiradi:

1. Interfaol ta'lim texnologiyalari;
2. Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari( o'yin texnologiyalarini o'zida aks ettiradi);
3. Innovatsion ta'lim texnologiyalari va h.k.

**"Innovatsiya** (yangilik, kiritish, yangilash, yangilik) – bu faoliyatning turli jabhalariga, shu jumladan, ishlab chiqarishga, sanoatga, ta'limga yangiliklarning kiritilish jarayonidir". Shuning uchun ta'limning uzluksizligi har bir zamonaviy inson hayotining zaruriy shartiga aylanadi. Mehnat mazmuni va xarakterining o'zgarishi munosabati bilan kattalar tomonidan ilgari har qanday sohada – fan, madaniyat yoki texnikada olingan bilimni doimiy ravishda yangilab turish, ularning malaka va ko'nikmalarini oshirish zarur. Rivojlanayotgan axborot oqimlari va yuqori texnologiyali sanoat yangi malakalarga tezda moslasha oladigan, bir faoliyatdan boshqasiga o'tish uchun keng muloqot ko'nikmalariga ega bo'lgan turli

mutaxassislarni talab qiladi. Shu sababli, faqat uzluksiz ta'lim ish joyining talablari va malakalari o'rtasidagi muvofiqlikka erishish vositasiga aylanishi mumkin. Biroq, kundalik ish bilan bog'lanib qolib, kattalar har doim ham o'z malakasini oshirish uchun vaqt topa olmaydi. Insonning bilimlari va shaxsiy ehtiyojlarini doimiy ravishda yangilash uchun bozor talablarini birlashtirish muammosini hal qilish – bu shaxsning malakasini doimiy ravishda oshirishga (chuqurlashtirish yoki kengaytirish) turtki bo'ladi.

Kattalar ta'limi texnologiyasi deganda biz katta o'quvchilarning dalillarga asoslangan harakatlari tizimini tushunamiz, ularning amalga oshishi yuqori darajadagi ishonch bilan belgilangan maqsadlariga erishishga olib keladi. Kattalar ta'limi texnologiyasi ta'limning insonparvarlik, shaxsga yo'naltirilgan paradigmasining fundamental, uslubiy tamoyillariga asoslanishi va andragogik yondashuv tamoyillarini hisobga olishi kerak. Kattalar ta'limi texnologiyasi haqida faqat kontseptual, tizimli, samarali, takrorlanadigan va, albatta, tarbiyaviy ta'sirga ega bo'lganda gapirish mumkin. Bugungi kunga qadar kattalarni o'qitish texnologiyalarining ikkita tasnifi mavjud:


1. **An'anaviy texnologiyalar:** samarali ta'lim, o'zaro ta'sir, hamrohlik, kattalar ta'limini boshqarish, katta yoshdagi odamlarni qo'llab-quvvatlash.
2. **Innovatsion texnologiyalar:** ijtimoiy tarmoq (kompyuter), moderatsiya, kontekst.

Hozirgi vaqtda har qanday zamonaviy inson hayotining ajralmas qismiga aylangan innovatsion texnologiyalar, xususan, kompyuter texnologiyalari ularning ta'limga kiritilishi yangi bilimlarni bir kishidan ikkinchisiga, bir avlodning to'plangan tajribasini boshqasiga o'tkazishni sezilarli darajada tezlashtiradi va kattalarga jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy o'zgarishlarga muvaffaqiyatli moslashish imkonini beradi.

Zamonaviy ta'limning talabi o'quvchilarga imkon qadar ko'proq bilim berish emas, balki ularni o'z-o'zidan o'rganishga, nafaqat bilishga, balki olingan ma'lumotlar bilan ishlay olishga o'rgatishdir. Ta'limda innovatsiyalarning ahamiyati shundan iboratki, ta'limni tartibga solish, uni to'g'ri yo'nalishga yo'naltirish imkonini beradi. Odamlar har doim noma'lum va yangi narsalardan qo'rqib ketishgan, ular har qanday o'zgarishlarga salbiy munosabatda bo'lishadi va bu ta'limning barcha turlarini yangilashga to'sqinlik qiladi. Hamma ham nazariyani qayta o'rganish, imtihon topshirish, fikrini o'zgartirish, vaqt va pul sarflashga tayyor emas. Ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarning bir nechta turlari mavjud:

## NATIJALAR

1-rasm.



**Loyiha ish** – o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, ularda jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradigan faoliyat turi. Loyihalarning maqsadi yangilash va amaliyotda foydalanish, olingan bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirishdan iborat. Loyiha ustida ishlash individual, juftlik yoki mikroguruhlarda amalga oshirilishi mumkin, u muammoni hal qilishni, optimal echimlarni izlashni o‘z ichiga oladi. Maktablar loyihalarda fanlarning integratsiyalashuvidan faol foydalanadilar, masalan, ular talabalarga til va adabiyot, matematika va kimyo, tarix va biologiyaning fanlararo aloqalarini o‘rganishni taklif qiladilar. Ushbu yangilik murakkab fikrlashni, tahlil qilish, aloqalarni o‘rnatish va yangi g‘oyalar yaratish, dunyoning yaxlit manzarasini ko‘rish qobiliyatini shakllantiradi va rivojlantiradi.

**O‘yin texnologiyasi** - O‘yin xonalari bir nechta funksiyalarni bajaradi: ko‘ngilochar, terapevtik, diagnostik, ijtimoiy. O‘yin davomida ta’lim oluvchilar erkin rivojlanish faoliyati bilan shug‘ullanadilar, nafaqat natijadan, balki jarayondan ham zavqlanadilar. O‘quv jarayonida o‘yin kengroq texnologiya elementi, darsning bir qismi yoki sinfdan tashqari mashg‘ulotlar sifatida ishlatiladi. Pedagogik o‘yin aniq shakllantirilgan maqsadga ega bo‘lib, u o‘yin vazifasi shaklida taqdim etiladi, o‘yinning barcha ishtirokchilari oldindan tayyorlangan va e‘lon qilingan qoidalarga bo‘ysunadilar. Shunday o‘yinlardan biri bilan tanishtirib o‘tamiz:

### **O‘tirib charchaganlar uchun xarakatli mashqlar**

**shamol esyapti** - bu seminarlarda eng ommalashgan o‘yinlardan biri. Ishtirokchilar stullarda o‘tiradilar. Moderator komandasi bilan shamol u aytgan kishilarni “uchirib ketishi”ni, shunda ishtirokchilar bir-birlari bilan o‘rin almashishlari lozimligini

tushuntiradi. Uning o‘ziga stul qo‘yilmagan. Quyidagicha komandalar berilishi mumkin: “Shamol esyapti, oq kiyim kiyganlarni uchirib ketyapti” yoki “Shamol esyapti va hamma shim kiyganlarni uchirib ketyapti...” yoki “Shamol esyapti va qo‘shiq aytishni yoqtiradiganlarni uchirib ketyapti...” va v.k. Ishtirokchilar o‘rin almashgunlaricha moderator ham bo‘sh stullardan biriga o‘tirib oladi. Stul yetmagan ishtirokchi boshlovchilik qiladi va “shamolning esishi” kimlarni olib ketishini aytadi.

**Masofaviy ta’lim** – avvalo, Yevropa mamlakatlari va AQShda faol joriy etilgan yangilik bo‘lib hozirgi kunda bizda ham ancha rivojlangan innovatsion texnologiyalar sirasiga kiradi. Bunda kurslar maxsus mo‘ljallangan saytlarda yaratilgan bo‘lib, ularda ma’ruzalar, topshiriqlar, o‘qitish bilan yuzma-yuz maslahatlashuvlar jadvali mavjud. Talabalar o‘z vaqtlarini rejalashtirgan holda bimalol mustaqil ta’lim olishlari mumkin. Keling, avvalo masofaviy o‘qish tushunchasiga e’tiborimizni qaratsak, masofaviy o‘qitish (distant education) – o‘quv jarayonining maqsadi, mazmuni, uslublari, o‘qitish vositalari va texnologiyasi yordamida tinglovchi va o‘qituvchilar masofadan turib interfaol muloqot qilish jarayonidir. Masofaviy o‘qitish– eng yaxshi an’anaviy va innovatsion uslublar, o‘qitish vositalari va shakllarini o‘z ichiga olgan axborot va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta’lim shaklidir.

Zamonaviy innovatsion texnologiyalarning bu turidan foydalanish yosh avlodga unchalik qiyinchilik tug‘dirmasada, lekin katta yoshdagilarga bir oz qiyinchilik ham keltirib chiqardi. Shunga qaramasdan katta yoshdagi ta’lim oluvchilar uchun masofaviy o‘qitish usuli qulayliklarni olib keldi. Chunki ularning qo‘shimcha o‘qib o‘rganishlari uchun birinchi navbatda vaqt masalasi muammo bo‘lib turardi. Masofaviy o‘qish turi esa kattalarning vaqtini biroz bo‘lsa ham tejashga xizmat qiladi. Shunday qilib, zamonaviy texnologiyalar har bir ta’lim oluvchini egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hattoki, xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida kattalarni ijodkorlik, aql-zakovat yo‘nalishida tarbiyalash alohida ahamiyatga egadir. Kattalar ta’limini osonlashtirish uchun masofaviy ta’limning ahamiyati juda kattadir.

Bugungi kunda har bir katta yoshli kishi masofadan turib o‘qish va zarur ta’lim olish imkoniyatiga ega. Buning uchun mavjud ta’lim muassasalarida malaka oshirish yoki qayta tayyorlash bo‘yicha onlayn kurslardan o‘tish, oliy yoki o‘rta ma’lumot olish imkoniyati yaratilgan.

Kattalar uchun masofaviy ta’limning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular o‘zlari oladigan ta’lim nima uchun kerakligini bilishadi, ya’ni ular o‘rganish uchun ko‘proq motivatsiyaga egadirlar. Ko‘pchilik o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ishlaydi, lekin kerakli ta’lim darajasiga (oliy – bakalavr yoki magistratura) ega emas, ya’ni kattalar



faqat o'zlariga haqiqatda kerak bo'lgan narsalarni o'rganadilar va o'quv jarayonining o'zi amaliy misollarga asoslanadi.

Kattalar uchun masofaviy ta'limning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- Moslashuvchanlik; o'quv materiallarini talaba uchun qulay vaqtda o'rganish qobiliyati;
- Foydalanish imkoniyati: internetga bepul kirish imkoniga ega bo'lgan har bir shaxs yashash joyi va joylashgan joyidan qat'iy nazar, ta'lim olishi mumkin;
- Ochiqlik: har bir talaba o'zi uchun qulay bo'lgan bilim olish shaklini tanlashi mumkin (ma'ruzalarni tinglash yoki tomosha qilish, konspektlarni o'qish, uslubiy yoki o'quv adabiyotlari). Ta'lim mashg'ulotlariga kirish hamma uchun ochiq;
- Faoliyat: Voyaga yetgan kishi ta'lim jarayonining muhimligini tushunadi. Shunday qilib, masofaviy ta'lim salohiyatni ochib beradi, yangi imkoniyatlar beradi. Inson dunyoning istalgan nuqtasida yangi bilim olishi mumkin.

Ammo kattalarni o'qitishda masofaviy ta'limning salbiy tomonlari ham borligini yodimizdan chiqarmasligimiz lozim.

- ❖ AKT salohiyatining yetishmasligi;
- ❖ Zamonaviy axborot vositalarining mavjud emasligi;
- ❖ Online darslardan qoniqmasligi;
- ❖ Muloqotning kamligi.

Kattalar uchun masofaviy ta'limning o'ziga xosligi quyidagi xususiyatlarda namoyon bo'ladi:

- Talaba o'zini - o'zi tashkil etish va o'z - o'zini tarbiyalash ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- o'quv jarayonini tashkil etishda asosan shaxsiy kompyuter va zamonaviy internet texnologiyalari bilan ishlash qobiliyatiga ega bo'lishi.

Masofaviy o'qitish quyidagi texnologiyalarni o'z ichiga oladi:

#### **Interaktiv texnologiyalar:**

- Audio konferensiyalar;
- Videokonferensiyalar;
- Ish stolidagi videokonferensiyalar;
- Elektron konferensiyalar;
- Ovoz kommunikasiyalari;
- Ikki tomonlama sputnik aloqa;
- Virtual borliq.

#### **Nointeraktiv texnologiyalar:**

- ❖ Bosib chiqarilgan materiallar;
- ❖ Audiokassetalar;

- ❖ Videokassetalar;
- ❖ Bir tomonlama sputnik aloqa;
- ❖ Televizion va radio ko'rsatuvlari; disketa va CD-ROM lar

**Modulli ta'lim**- birinchi variantlari AQSH o'rta maktablaridan boshlangan, unda dastlab kunning kattagina bo'lagi, hatto butun bir kun, ma'lum bir predmetni o'rganishga ajratildi. Modullar asosida o'qitish bir necha ijobiy samaralarga olib keldi. Birinchidan, didaktik material va yo'riqnomalar bilan qurollangan talaba o'quv predmetini o'zlashtirishda mustaqillikka ega bo'ladi. Ikkinchidan, o'qituvchining ma'ruzabozlik funkstiyasi, maslahat beruvchilikka aylanadi, talaba esa sust tinglovchi bo'lib qolmasdan, unda predmetni o'qituvchi bilan faol muhokama qilish imkoniyati paydo bo'ladi. Uchinchidan, har bir modul o'zlashtirib bo'lingach, materialni o'zlashtirishning oraliq nazorat nuqtalari oydinlashadi. Bu nazorat o'qituvchi uchun ham, talaba uchun ham birday ahamiyatga ega. To'rtinchidan, har bir modul mazmunan yakunlanishi barobarida, materialni qadam-baqadam o'zlashtirib borish imkoniyati yaratiladi. Modulli ta'lim awal AQSH universitet va kollejlarda, so'ngra g'arbiy Evropa o'quv yurtlarida o'z tarfdorlarini topdi. O'quv yurtlari ayrim pedmetlarni modulli o'qitishdan, butun kasbga tayyorlash tizimini o'z ichiga oluvchi integrallashgan modulli usulga o'ta bordilar. Bundan tashqari modulli ta'lim, malaka oshirish institutlariga, biznes- maktablar, shuningdek oliy ta'lim va oliy ta'limdan keyingi ta'limiga ham kirib keldi. U ishlab turgan va o'z malakasini oshirmoqchi bo'lgan katta yoshdagi kishilar uchun ham samarali bo'lib chiqdi. O'qish modul ketidan modul kelishi davomiyligi asosiga qurilganligi uchun, ta'lim jarayonida uzilishlar bo'lmaydi.

**Interfaol texnologiyalar** – bu o'qituvchi va o'quvchilarga joyni almashtirishga yordam beradigan usul hisoblanadi. Guruhlarda muloqot qilish, ma'lumotlar ustida ishlash, Bu o'quvchilarning bir-biri bilan o'zaro munosabatda bo'ladigan, umumiy muammoni hal qilishda birgalikda faoliyatni yaratishga qaratilgan usullarning butun majmuasidir.

**Portfolio** - bu o'quv natijalari dinamikasini baholashga yordam beradigan texnologiyadir. Undan ta'lim yutuqlari va kashfiyotlarini tasavvur qilish uchun foydalanish mumkin. Ushbu yangilik ma'lumotlarni to'plashning quyidagi usullari orqali amalga oshiriladi: “elektron portfellar”, “yutuq papkalari”, “o'sish kundaliklari”. Ular barcha ishlanmalarni, loyihalarni qayd etadilar, loyihalarda ishtirok etish, muhokamalar va ijodiy faoliyat natijalarini tasdiqlovchi materiallarni to'playdilar. Ushbu texnologiyalar asosiy yondashuvlarni hisobga olgan holda kompleks tarzda qo'llaniladi. Ish texnologiyasi va usulini tanlashda o'qituvchilar o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini, ularning moyilligi va ehtiyojlarini hisobga oladi.

Ta'lim texnologiyalarini tahlil qilishda zamonaviy elektron vositalardan (AKT) foydalanishni alohida ta'kidlash kerak. Hozirgi vaqtda hayotimizni telefon, kompyuter va shunga o'xshagan vositalarsiz tasavvur eta olmaymiz. Shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalari ta'lim sifatini oshirishda ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, pandemiya davri barcha yoshdagi insonlarning AKT savodxonligini oshishiga sabab bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

**O'qitish texnologiyasi** - ta'lim muassasasi oldiga qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirish bo'yicha qo'llanma hisoblanadi. Bu ilmiy bilimlardan didaktik foydalanishga, o'qituvchilarning empirik innovatsiyalaridan foydalangan holda o'quv jarayonini tashkil etishga, maktab o'quvchilari va talabalarning motivatsiyasini oshirishga qaratilgan tizimli texnologiyadir. Ta'lim muassasasining turiga qarab, ta'limga turli xil yondashuvlar qo'llaniladi.

### **XULOSA**

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, bugungi kunda innovatsion texnologiyalarsiz ilm-fan va ta'lim sohasida muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. Nafaqat yangi yosh avlod balki katta yoshdagi insonlar ham jahon tajribasi asosida saboq olib o'qib – o'rganishsa, davlatimizning ertangi istiqboli, kelajagi yorqin bo'lishiga shak-shubha yo'q.

1. Zamonaviy axborot texnologiyalari hayotimizning bir qismiga aylanib bo'lgan. Shuningdek, masofaviy ta'lim sifatini oshishida ham ularning o'rin muhim ahamiyatga egadir. Zamonaviy axborot texnologiyalari tinglovchilarning mashg'ulotlar jarayoniga faol jalb qiladi. Bundan tashqari tinglovchilar internet tarmog'idan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lib boradilar. Masofaviy ta'lim berish o'qituvchi-professorlarning ish faoliyatini yengillashtirish bilan bir qatorda, ularni o'z ustida ishlashiga, mustaqil izlanishiga, ijodkorlikka undaydi. Bu esa o'z navbatida ta'lim samaradorligini oshishiga sabab bo'ladi.
2. Ta'lim uchun yangi metod, texnologiyalar, innovatsiyalarni joriy etish samaradorlikni oshirishning asosiy yo'li sifatida ham maydonga chiqadi. Ayni shu sababli barcha mamlakatlar ta'lim tizimiga yangi metod, texnologiyalar, innovatsiyalarni mumkin qadar ko'proq joriy etishga harakat qiladilar.
3. Innovatsiyalarning samaradorligi ta'lim muassasasida amalga oshirilayotgan innovatsion faoliyatning to'g'ri tashkil etilganligiga bog'liqdir. Darslarni tashkil etishda zamonaviy o'qitish metodlari – interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Andragog ish kitobi // Ed. S.G.Vershlovskiy. - Sankt-Peterburg: Bilim, 1998 yil.
2. Andragogika // O‘.M.Asqarova, M.A. Abdullaeva, M.Boltaeva Namangan-2014.
3. Андрагогический подход к развитию образовательной активности педагога в процессе повышения квалификации // Г.А.Владимировна. Тема диссертация и авторефераты по ВАК РФ 13. 00. 01 дисс кандидат педагогических наук.
4. Innovatsion ta’lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonbekova M. X., Sayfurov D. M., To‘rayev A.B. – “Sano standart” nashriyoti, 2015.
5. Mirsoliyeva M.T., Ishmuhammedov R.J O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish // Metodik qo‘llanma. – Toshkent: - fan va texnologiya. 2014.